Yana bir jihati, qonda xolesterin ko'pligi tomirlarda toshmalar hosil bo'lishiga, ular esa qon oqishini qiyinlashtirib, bosim oshishiga olib keladi. Shu tariqa, qon bosimini tushirishda asosiy e'tibor qon tomirlari torayishini bartaraf qilishga qaratilishi kerak. Tegishli dori-darmonlar, chora-tadbirlarni qo'llashdan ko'zlangan maqsad ham shu aslida. Masalan, magniy elementi va uning birikmalarini qabul qilish tinchlanib uyquga ketishga yordam beradi. Tana muskullari, teri va bo'g'imlarni asta-sekin uqalash, ochiq havoda ozmuncha sayr qilish natijasida esa toraygan qon tomirlari ma'lum darajada o'z holiga keladi, bosim pasayadi

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan 1978-yilda qabul qilingan Gipertoniya kasalligining tasnifi quyidagi bosqichlardan iborat:

I bosqich qon bosimi oshishining ko'rsatkichi 140/90 mm simob ustunidan yuqori bo'lib (mas, 150—180/90-* 105) markaziy nerv sistemasi, yurak-tomir va buyrak sistemasining zararlanishi belgilarisiz kechadi, uzoq muddat davom etmaydi va bemor iztirobdan qutilgandan so'ng hamda qon bosimini tushiruvchi, tinchlantiruvchi dorilar ichilgandan va organizmga ma'lum muddat dam berilgandan keyin uning ahvoli yaxshilanadi va arterial bosim ko'rsatkichlari tez orada mo'tadillashadi.

II bosqichda arterial bosimning sistolik ko'rsatkichi 160–179 mm simob ustuniga, diastolik ko'rsatkich esa 100–109 mm simob ustuniga teng bo'lishi va undan ham yuqoriga ko'tarilishi mumkin. Bu bosqichda patologik o'zgarish asosan yurakning chap qorinchasi gipertrofiyasi bilan belgilanadi, shuningdek, to'r parda tomirlarining yoyilgan yoki fokal torayishi, mikroalbuminuriya, ya'ni siydikda oqsil moddasi va qon plazmasida keratinin konsentratsiyasining qisman oshishi (1,2—2,0 mg/dl) kuzatiladi. Ultratovush tekshiruvi yoki angiografiya (son arteriyalarida, aortada, yonbosh va son arteriyalarida o'tkazilgan) orqali aterosklerotik o'zgarishlar (pilakchalar)nianiqlash

mumkin. Klinik shikoyatlari tez-tez bosh og'rishi, bosh aylanishi (gipertonik krizlar), yurak sohasida og'riq, noxushliklardan iborat.

III bosqichda bemorlarda qon bosimi ko'rsatkichlari yanada yuqori (sistolik-180—209 mm, diastolik esa 110–119 mm simob ustuniga teng va undan ham yuqori) va doimiy bo'ladi. Bu bosqichning klinik manzarasi rang-barang bo'lib, nafaqat yurak-tomir sistemasida (stenokardiya, miokard infarqti), balki bosh miya qon tomirlarida ham patologik o'zgarishlar (gemorragik insult, ensefalopatiya), buyrak yetishmovchiligi (nefroangioskleroz) hamda ko'z to'r pardasiga qon quyilishi kuzatiladi. Bunday og'ir asoratlar sodir bo'lgan paytlarda qon bosimi ko'rsatkichlari pasayishi, hatto normallashishi ham mumkin.

Yuqori qon bosimida yuzaga keladigan belgilarni ko'rib chiqsak:

Bemorda dastlabki belgilar deyarli namoyon bo'lmaydi. Buni faqatgina maxsus asbob: tonometr bilan qon bosimini darajasini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari yuqori qon bosimini ko'rsatadigan aniq sabablar ham mavjud. Bemorda:

-Bosh og'rig'i   -Quvvatsizlik, surunkali charchoq

-Ko'ngil aynishi   -Kayfiyatning o'zgarishi

-Ko'krak qafasidagi siqish va siqilish hissini yuzaga kelishi

-Notinch uyqu yoki uyqusizlik holati

-Quloqlarda og'riq va shovqinning bo'lishi

-Bosh aylanishi, ko'z oldi xiralashishi, ko'z oldida miltillovchi nuqtalar hosil bo'lishi

-Burundan qon ketishi va nafas qisilishi kabi holatlar yuzaga keladi.

Bugungi kunda barchamizga ma'lumki   yuqori qon bosimi ayollarda ham erkaklarda ham yurak qon-tomir kasalliklarini keltirib chiqaradigan va ularda yuzaga keladigan xurujlar xavfini oshiradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Spirtli ichimliklar ichish, stress, ob-havoning o'zgarishi, homiladorlik vaqtida, ortiqcha ovqatlanish va kamharakatlilik, irsiy moyillik, bosh miya jarohatlari, yuqumli va virusli kasalliklar, kun davomida ko'p tuz iste'mol qilish va shunga o'xshash yana boshqa sabablar qon bosimi oshishiga asosiy sabablar bo'lsada, lekin hayotimiz davomida doimiy tark etilmagan, o'rganib qolgan (kam suyuqlik iste'mol qilish, hayot uchun zarur bo'lgan vitaminlarni iste'mol qilmaslik, gavda holatiga e'tibor bermaslik ya'ni osteoxondrozda, o'z vaqtida tibbiy ko'riklardan o'tmaslik va shifokor bilan maslahatlashmasdan turli xil dori-darmonlarni qabul qilish) odatlarimiz ham gipertoniyaga sabab bo'lishi mumkin. Arterial gipertoniya oldinlari faqat qariyalarda uchragan bo'lsa, bugungi kunda noto'g'ri tanlangan turmush tarzi sababli yoshlar

orasida ham tarqalib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar sababli, qon bosimi yoshga qarab normal o'lchamlar aniqlandi:

20 yoshgacha: erkaklar-123/76, ayollar-116/72

30 yoshgacha: erkaklar-126/79, ayollar-120/75

30-40 yoshgacha: erkaklar-129/81, ayollar-120/75

40-50 yoshgacha: erkaklar-135/83, ayollar-144/85

50-60 yoshgacha: erkaklar-142/86, ayollar-159/85

Arterial gipertoniyani ayollar va erkaklarda kelib chiqish sabablari turlicha bo'ladi,

Ayollarda gipertoniya bo'lishiga asosiya sabablardan biri menopauza (47 yoshdan 54 yoshgacha bo'lgan ayollarda bir yil davomida hayz ko'rishdan qolish) davridagi gormonal o'zgarishlar natijasida yuzaga kelish mumkin. Bundan tashqari, tuz yoki aniqrog'i, unda mavjud natriy, shuningdek, alkogol mahsulotlarni iste'mol qilish, kam harakatlik, semizlik, stress ham yurak qon-tomir kasalliklariga sabab bo'ladi.

Erkaklarda spirtli ichimliklar, semizlikdan tashqari, ular o'z his-tuyg'ularini atrof-muhitga namoyon qilmasligi ham sabab bo'ladi. Bunday vaziyatda sirtdan ko'ringan bosiqlik ostidan tajovuzkor fikrlar yashirilgan bo'ladi. Shunga o'xshash salbiy fikrlar organizmda ichki bosimni yuzaga keltiradi.

Arterial gipertoniyani tashxislash

Arterial gipertoniya bilan kasallangan bemorlarga tashxis qo'yish uchun shifokor bir nechta labaratoriya tahlillari va apparatlaridan o'tkazishi zarur. Bu tashxislarning asosiy maqsadi bemorda yuzaga kelgan kasallikning bosqichi va gipertoniya darajasini aniqlab oladi. Kasallikning dastlabki belgilari yashirin bo'lganligi sababli, bemorlar shifokor huzuriga kech kelishganligi sababli bu kasallikni davolash shifokor uchun bir oz murakkab bo'ladi. Uy sharoitida har bir inson arterial bosimni o'lchab turishi lozim. Normal sharoitda optimal ko'rsatkich 120/80 mm.sim.ustuniga teng, Yoshi kattalar uchun esa 130/90 mm.sim.ustuniga teng. Atrof-muhit ta'siri yoki jismoniy faollik natijasida bosim 5-10 birlikka ortishi tajribalar davomida kuzatilgan.

-Umumiy qon tahlili (gemoglabin, eritrositlar, leykotsitlar) -Umumiy siydik tahlili (nisbiy zichligi, oqsil, glukoza, eritrotsitlar, leykotsitlar) -Qonning biokimyoviy tahlili (plazmadagi XS, LP, TG, kreatinin, kaliy, mochevina, siydik kislota, qand miqdori) -EKG, oftalmoskopiya va tana vazni indeksini aniqlash kabi yuqorida aytib o'til- gan tekshirishlar barcha bemorlar uchun asosiy tekshirish usullari hisoblanadi.

Anamnez va ob'yektiv ko'rik natijalariga asoslangan holda quyidagi qo'shimcha tekshirishlar o'tkaziladi: -
Ko'krak qafasini roentgen yordamida tekshirish   -
Qon zardobida kaliy, siydik kislotasi darajasi   -
Bir kecha-kunduzlik siydik cho'kmasini mikroskopiyasini   -
Qonda lipidlar spektri va oqsil fraksiyasi

Arterial gipertoniyani davolash.

Gipertoniya kasalligini davolashda juda ko'plab gipotenziv va sedativ preparatlar, fizioterapiya, dam olish maskanlarida davolanish bilan bir qatorda tabiatimiz mo'jizalardan tayyorlangan shifobaxsh damlamalar, qaynatmalar va taomlar bilan ovqatlanishi juda muhim o'rin tutadi. Olimlarimizning izlanishlanishlari natijasida arterial gipertoniyani davolashda besh guruh gipotenziv dori vositalari yaratildi. Keling endi ushbu dori guruhlarni ko'rib chiqsak:

1.β-adrenoblkatorlar-yurak qisqarishlar soni va uni qon otib berish hajmini kamaytirib beradi. Masalan: kardioselektiv bo'lmagan (anaprilin 10-40 mg, karvitol 50 mg, kavedilol 6.25-12.5 mg); kardioselektivlar (atenolol 50-100 mg, bisipralol 5-10 mg). Ushbu dori vositalardan foydalanish jarayonidagi foydali tomonlari bilan birga qo'llsh mumkin bo'lmagan holatlardan ham xabardor bo'lishimiz kerak va biz davolovchi shifokor sifatida bu dorilar haqida qisqacha ma'lumot berishimiz kerak. Bronxial astma, bradikardiya, kardiogen shok, gipotoniya va insulinga bog'liq qandli diabeti bor imsonlarga ushbu dori vositalari tavsiya qilinmaydi.

2.Diuretiklar-gipertoniya kasalligiga ega bo'lgan bemorlarda yurak qon-tomir kasalliklarini kamaytiradi. Masalan: benzotiazidlar (flyumetiazid 25-50-100 mg), gidrotiazidlar (navidraks-0,5 mg) va boshq. Tavsiya qilinmaydigan holatlar: bemor giperglikemiya va giperurikemiya kasalliklar bo'lganda.

3.Angiotenzinni aylantiruvchi ferment ingibitorlari-kuchli organoprotektorlik xususiyatga ega bo'lib, yurak qon-tomir kasalliklari va o'lim sonini kamaytiradi.

4.Kaltsiy kanallari antoganistlari-

5.Angiotenzin II qon bosimini pasaytirish uchun qo'llaniladi. Dori moddalarga yuqori sezuvchanlikda, homiladorlik va laktatsiya davrida, buyrak stenozlarida tavsiya qilinmaydi.

Hozirda zamonaviy tibbiyotda qo'llaniladigan bir nechta dori turlarini ko'rib chiqsak. Masalan: amlonon, amlodipin, bisoprolol. enalapril, magniy sulfat, papazol,kardilopin ,kaptopril va boshqa dori vositalari arterial gipertoniyani dabolashda deyarli yer yuzining barcha mamlakatlarda foydalnilmoqda. Davolash sifatida keng tarqalgan *enalapril* haqida to'xtalsak.

__Enalapril-__ Angiotenzin aylantiruvchi ferment (AAF) faolligini susaytiradi, bu angiotenzin II hosil bo'lishini kamaytiradi, bu uni arterial va venoz tomirlariga tomirni toraytiruvchi ta'sirini yo'qolishiga olib keladi. Umumiy periferik tomirlar qarshiligini pasaytirib, antigipertenziv ta'sir ko'rsatadi. Oldingi va keyingi yuklamani kamaytiradi, yurakdan otilib chiqadigan qon va yurakning minutlik hajmini, yurak qisqarishlarini tezlashtirmagan holda oshiradi. Yurakning o'ng bo'lmachasidagi va kichik qon aylanish doirasidagi bosimni kamaytiradi. Uzoq muddat qo'llanganida yurakni kattalashgan o'lchamlarini qisqartiradi. Buyrak usti bezlari po'stlog'ida aldosteron hosil bo'lishini kamaytiradi. Bir marta qabul qilingandan keyin, antigipertenziv ta'siri 1 soatdan so'ng boshlanadi, 4-6 soat o'tgach maksimumga yetadi va 24 soatgacha saqlanadi. Arterial bosimni (AB) optimal tushirishga erishish uchun preparatni bir necha hafta davomida qabul qilish talab etiladi.

Qo'llanilishi: Arterial gipertoniya (shu jumladan renovaskulyar), surunkali yurak yetishmovchiligi, yurakning chap qorinchasini simptomsiz disfunksiyasini (majmuaviy davolash tarkibida) davolashda qo'llanadi.

Qo'llash usuli va dozalari: Ichga, ovqatdan oldin, ovqatlanish vaqtida yoki undan keyin chaynamasdan, suv bilan qabul qilinadi. Preparatning dozasi bemorning holatiga qarab individual ravishda tanlanadi.

Arterial gipertenziyani davolash: monoterapiyada tavsiya qilingan boshlang'ich doza sutkada 1 marta 5 mg ni tashkil qiladi. Yetarli gipotenziv samara kuzatilmasa, sutkada 2 martagacha oshiriladi. Yaxshi o'zlashtirilganda va zarurati bo'lganida preparatning sutkalik dozasini oshirish mumkin. Odatda davolashning 2-4 haftasidan keyin belgilanadigan sutkalik samarani bir maromda ushlab turuvchi doza 10 mg dan 20 mg gacha, kam hollarda 40 mg ni tashkil qiladi, uni 1 yoki 2 marta qabul qilishga bo'linadi. Maksimal sutkalik doza – 80 mg.

Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar: Preparatga yuqori sezuvchanlik, yoki boshqa AAF ingibitorlarini qabul qilish vaqtida angionevrotik shishni rivojlanishi haqida anamnezdagi ma'lumotlar; porfiriya, homiladorlik va emizish davri, bolalik yoshi giperkaliemiyada qo'llash mumkin emas.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan dori moddalardan tashqari arterial gipertoniyani davolashda xalq tabobati ham keng qo'llaniladi. Misol qilib aytadigan bo'lsak, G'arb mamlakatlarida Avitsenna nomi bilan eng mashhur O'rta Osiyolik qomusiy olim Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida *lavlagi* o'simligi haqida ko'plab foydali ma'lumotlarni yozib qoldirganlar. Qon tomirlari torayishi oldini olishda biz iste'mol qiladigan ko'pgina sabzavotlar, jumladan, lavlagi, sabzi, karam, bodring, shuningdek, ayrim meva-cheva juda asqatadi. Taomlanishda ham ulardan imkon darajasida ko'proq

foydalanish maqsadga muvofiq. Ahamiyatlisi, nafaqat gipertoniya, balki boshqa bir qancha xastaliklardan saqlanishda **qizil lavlagi** eng foydalisidir. Birinchidan, uni tomorqa sharoitida yetishtirish oson. Qolaversa, qish-qirovli kunlarda ham yaxshi saqlanadi, istalgan paytda topish muammo tug'dirmaydi. Abu Ali ibn Sinodan tashqari eramizdan avvalgi davrda yashab o'tgan Gippokrat ham lavlagining ko'plab shifobaxsh xususiyatlari, xususan, jarohatlarni davolash hamda organizmdagi shishlarni qaytarishi haqida aytib o'tgan. Bundan tashqari, mazkur sabzavotdan xaalq tabobatida ichaklarni tozalash, jigar, o't qopi xastaliklarini tuzatishda foydalanib kelingan. Lavlagi va undan tayyorlangan sharbatlarning qon bosimini pasaytirish xususiyati bundan bir necha yillar oldin ochilgan. Hozirgi kunda shu yo'l bilan ushbu dardga yo'liqqanlarga yaxshigina yordam berilmoqda. Eng muhimi, qizil lavlagini muntazam iste'mol qilib turish qon tomirlari elastikligini yaxshilab, gipertoniyaning oldini oladi. Lavlagi iste'mol qilishni kanda qilmaydigan insonlarda boshqa insonlarga qaraganda gipertoniya xavfi kamroq. Lavlagining tarkibida boshqa shifobaxsh o'simliklar tarkibida uchraydigan temir moddasi, foliy kislotasi (vitamin B9), B1, B2, C va PP vitaminlar ham mo'l bo'lib, bu holat tufayli anemiya (kamqonlik), moddalar almashinuvi buzilishi, nerv sistemasi xastaliklari oldi olinadi. Bundan tashqari lavlagi xolestirin miqdorini ko'paytirmaydi va shu bilan bir qatorda turli xil toshmalar hosil bo'lishini oldini oladi. Uni iste'mol qilishda barchamizga ma'lumki, pishirib yeyish, hamda sharbatini olib ichishimiz mumkin. Ammo pishirilgan lavlagida dorivorlik xususiyati kamayadi. Shuning uchun ko'proq undan sharbat tayyorlab ichishimiz kerak. Ammo bir narsani sedan chiqarmasligimiz zarur, ayyorlangan sharbatni darhol ichish mumkin emas. Uni kamida ikki soat sovutkichda og'zi ochiq holda saqlab, keyin iste'mol qilish kerak. Aks holda u tarkibidagi vaqti bilan uchib ketadigan ayrim moddalari tufayli ko'ngilni aynitib, kishini behuzur qiladi, bo'shashtirib yuboradi. Ushbu sharbatni ichib yurmaganlar uchun bir kunda o'rtacha meyor 50 millilitr hisoblanadi, uni ham ikkiga bo'lib ovqatdan 10-15 daqiqa oldin ichish kerak. Sharbatning yuqoridagi kabi salbiy xususiyatlarini kamaytirish maqsadida unga sabzi yoki olma sharbati qo'shib ichish zarar qilmaydi. Bunday aralashma vitaminlar va biologik faol moddalarga boyligi bois yanada foydaliroq bo'ladi.

Xorijlik olimlar tomonidan lavlagi sharbatining qon bosimini kamaytirishi borasida o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, har kuni o'rtacha 250 millilitr sharbat ichib turadigan gipertoniyali respondentlarning ham maksimal (sistolik), ham minimal (diastolik) ko'rsatkichlari 10 millilitr simob ustuniga pasaygan va bu holat 24 soatgacha saqlangan. Har bi dori vositalarni, damlamalarni, sharbatlarni iste'mol qilishdan oldin, uning qanday vaziyatlarda qo'llashimiz mumkin emaligini bilishimiz kerak. Chunki

noto'g'ri tanlangan davo natijasida boshqa bir kasallikning rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin va bu matijasda bemor yanada og'ir ahvolga tushushi mumkin. Aytganimizdek, lavlagi qon tomirlarni kengaytiradi shu sababli, qon bosimi past bo'lgan (gipotoniklar) iste'mol qilishi mumkin emas. Bundan tashqari buyrak kasalliklari, buyrak va o't pufagida uchraydigan o't-tosh kasalliklari, revmatoid artrit, qandli diabet kasalligi bor bemorlar, jig'ildon qaynashi bo'lgan bemorlarga tavsiya qilinmaydi.

Dori-darmonlar, sharbatlar, qaytnatma va damlamalardan tashqari gipertoniya bilan kasallangan bemorlarning ovqatlanish tartibini ham to'g'ri qo'yish lozim. Masalan, ovqat tarkibidagi osh tuzi qon bosimini oshirganligi sababli uni ovqat tarkibidagi miqdorini kamytirish lozim. Agarda bemorda gipertoniyadan tashqari, yurak yetishmovhiligi, miyada qon aylanishning buzilishi va yurak-toj tomirlari o'tkir yetishmovchiligi kuzatilsa, ma'lum bir vaqt mobaynida ovqat tarkibiga tuz qo'shilmasligi kerak. Ovqat tarkibidagi natriy tuzlarining o'rniga magniy tuzlaridan fmaqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, magniy tuzlari tomirlar tonusini me'yoriga keltiradi, bosimni tushuradi.

Ovqat tarkibida yan qonning koagulyatsiya xususiyatini oshiradigan mahsulotlar ya'ni, yog'li mahsulotlar bo'lmasligi shart. D va K vitamini kam mahsulotlarni ham iste'mol qilish zarur. Chunki D vitamini aterogen ta'sirga ega bo'lsa, K vitamini qon ivish xossasini oshiradi. Buning oqibatida bosim yanada ortadi. Tuzlangan, dudlangan ovqatlar, o'tkir choy, kofe, shokolad, tort, spirtli ichimliklar iste'mol qilish mumkin emas. Semirish bilan kechadigan gipertoniyada xamirli taomlar, ko'p suyuqlik ichish mumkin emas.

Xulosa qilib aytganda, amaliyotchi psixoterapevt V.Sinelnikov "Men gipertoniyani umuman kasallik deb hisoblamayman. Bu hayotning muayyan hodisalarga bo'lgan muayyan munosabatidir. Har qanday qo'rquv, ishonchsizlik, u yoki bu hodisani qabul qilishni istamaslik natijasida kelib chiqqan ichki zo'riqish va qarshilikni uzoq vaqt davimida boshidan o'tkazadigan insonlar o'zlarining qon bosimlarini oshirishadi. Siz ayni paytda hal qilolmayotgan muammonggizdan bosim his qilasiz." deb ta'kidlaydi. Amaliyotlarim, izlanishlarimdan shuni bildimki insonning bu kasallik bilan kasallanishida eng avvalo ong osti zo'riqish, kuchli stress, atrof-muhitning salbiy ta'siri, ishdagi jismoniy va aqliy zo'riqish natijasi sabab bo'ladi. Bunday bemorlar eng avvalo ish va turmushida o'zgartirishlari kerakligi, o'z vaqtida dam olib, ovqatlanish tartibiga, sog'lom turmush tarziga rioya qilishi zarur. Bundan tashqari dori moddalarni is'temol qilishda shifokorlar bilan doimiy muloqotda bo'lib turishi, stress va depressiya vaqtida psixoterapevtlar nazoratida bo'lishi lozim.

Har bir inson har oy kamida bir marotaba tibbiy ko'riklardan o'tib, shifokorlar nazoratida bo'lishi zarur! Zero, salomatligimiz baxtimiz garovidir!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Dardingni sev"- Valeriy Sinelnikov
2. Ichki kasalliklarda shifobaxsh ovqatlanish – A.Shodmonov, R.Xisamutdinov
3. "Tib qonunlari"-Abu Ali ibn Sino
4. "Ziynat"-Abu Ali ibn Sino
5. Ichki kasalliklar propedevtikasi –A.Gadayev
6. Arterialnoe davlenie / Koshelev Vladimir Borisovich. // Bolshaya rossiyskaya ensiklopediya : [v 35 t.] / gl. red. YU. S. Osipov. — M. : Bolshaya rossiyskaya ensiklopediya, 2004—2017.
7. https://cardio-69.ru/news/492-pravila-i-tehnika-izmereniya-arterialnogodavleniya/Pravila i texnika izmereniya arterialnogo davleniya.
8. Tixonenko V. M.. © "INKART", 1993 – 2023. Dostoinstva metoda Korotkova pri monitorirovanii arterialnogo davleniya..
9. https://www.incart.ru/publish/learning-aids/dostoinstva-metoda-korotkova-primonitorirovanii-ad/

ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

MAKTAB RAHBARLARI FAOLIYATI DAVOMIDAGI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK VAZIFALARI

Zuxirdinova Dildora Xamidulli qizi
Andijon viloyat Andijon tumani 41-maktab psixologi

Annotatsiya: Bu maqolada salbiy va ijobiy, ijtimoiy-psixologik xususiyatlarning boshqaruv jarayoniga ta'siri hamda rahbarlar uchun ulardan foydalanish usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Faoliyat, boshqaruv, rahbar, ijtimoiy, psixologik, iroda, mas'uliyat, xuxusiyat, xodim, koeffisient.

Abstract: This article discusses the impact of negative and positive sociopsychological characteristics on the management process, as well as ways to use them for leaders.

Keywords: Activity, management, leader, Social, Psychological, will, Responsibility, intelligence, employee, coefficient.

KIRISH

Insonlarning ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, ya'ni u xodim yoki rahbar bo'ladimi ularning mehnat faoliyatiga ta'sir ko'rstatuvchi ichki va tashqi omillar har doim topiladi. Bu omillarning vujudga kelishi va ularning ta'sir darajasi ijobiy yoki salbiyligi har bir insonning o'ziga hamda yonidagi sherigi, jamoadoshi va xodimlariga bog'liq bo'ladi. Gap shundaki har qaysi odam tug'ilgandan to ma'lum ijtimoy darajasigacha o'zida shu davrgacha mujasamlashtirgan psixologik refleks, temperament va tipologik xususiyatlari hamda turli qamrovga ega aqliy ko'nikmalarini, bilimlarini xatti-harakatlari davomida namoyon qilib boradi. Bu fikrlardan anglashiladiki o'z-o'zida asosiy e'tibor doimgidek rahbar shaxsiga qaratiladi.

Boshqaruvchi rahbarlarga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni ijobiy mazmun kasb etishi faqat rahbarlarnigina emas, jamiyatning ham yutug'idir. Rahbarlar ma'naviyatli, madaniyatli, mahoratli, salohiyatli, qat'iy sabotli va mukammal irodaviy sifatlarga ega bo'lishi bugungi kun talabidir.Albatta aytib o'tilgan sifatlarga ega bo'lish juda yaxshi. Ulardan o'rinli foydalana olish esa jamoa harakatlar natijasining hamda jamoa psixologik muhitining yanada ijobiylashuvi uchun zamin yaratadi. O'z navbatida bu holat o'zaro munosabatlarda, rahbarga bo'lgan hurmat ko'rsatkichida va uning nufuzida bilinadi.

Rahbar kadrning nufuzi barqaror iroda subyekti ekanligini har qaysi harakat va faoliyatda namoyish qilishda o'z ifodasini topadi. Shaxslar aro munosbatda ish tuyg'uni keltiradi, insonni inson tomonidan to'g'ri idrok qilishga sharoit tug'diradi, individual uslubni shakllantiradi, obro'-e'tibor ma'naviy boylik bo'limidan ishlab chiqarish samaradorligining omili, iliq psixologik muhitning mexanizmi hisoblanadi. Shaxsning irodasiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- irodaviy kuch-quvvatning mujassamlashuvi;

- boshqaruv faoliyatining mashaqqatlari bilan maqsadga intilish va sobidqadamlik;

- tashabbus, mustaqillik, ijodiylik;

- dadillik, jasoratlilik, to'sqinlarni pisand qilmaslik; - vazminlik, esankiramaslik, o'zini-o'zi qo'lga ola bilishlik; intizomlilik, o'zini-o'zi udda qila olish va boshqalar.

Bular tarif berilgani kabi subyektiv jihatdan faoliyat samaradorlik omili hamda iliq psixologik muhit mexanizmi uchun asos bo'ladigan talablardir. Nega aynan birgina xususiyat butun boshli faoliyat mexanizmi sifatida qaralmoqda? Bunga sabab faoliyatdan anglashilgan holatda shaxs irodasiga hamohang tarzda burch, mas'uliyat, o'ziga bo'lgan ishonch hissi ortib boradi. Bunday xislatlar esa turli rahbarlarda turlicha ravshda namoyon bo'ladi. Boshqaruv psixologiyasida shu kabi xislatlarni va yondashuvlarni yuzaga chiqarish, rivojlantirish masalalari tadbiq etiladi.

Takidlanganidek ta'sir omillari qatoriga psixologik bilim va holatni asosiy jihat sifatida kiritish ilmiy asosga egaligi boshqaruv jarayoni hamda rahbar-xodimlar uchun manfaatlidir. O'z o'rnida ilmiy asoslanish boshqaruv psixologiyasida ijtimoiypsixologik usullar orqali o'rganiladi.

Ijtimoiy-ruhiy usullarning asosiy maqsadi jamoalarda sog'lom ijtimoiy-ruhiy muhitni yaratishdir. Bu usul ijtimoiy-ma'naviy vaziyatga ta'sir etish yo'li bilan kishilarning fe'l-atvori, ruhiyatini hisobga olib, ularning ijtimoiy (sotsial) talabini qondirish orqali boshqarishni bildiradi. Boshqacha qilib aytganda, sotsial-ruhiy metodlar ishlab chiqarish jamoalarini, ulardagi "psixologik iqlimni", har bir xodimning shaxsiy xususiyatlarini o'rganishga asoslangan usullardir.

Jumladan, bunday usullar orqali boshqaruv jarayoni, rahbar-xodim munosabatlari, jamoa uchun foydali xususiyatlar bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-ruhiy muhit inqiroziga sabab bo'luvchi omillar nazariy hamda amaliy jihatdan ko'rib chiqiladi va saralanadi. Masalan, Gellap institutining 782 rahbari o'rtasida o'tkazgan so'rov natijalariga ko'ra menejerning kuchli va kuchsiz tomonlari aniqlandi.

a)   rostgo'ylik va to'g'rilik;

b)   boshqalar bilan yaxshi munosabatda bo'lish;

c)   mehnatsevarlik;

d)   aqllilik;

e)   iqtisodiy faoliyatni bilish;

f)   liderlik;

g)   yuqori darajadagi ma'lumotga ega bo'lish.

Zaif tomonlari:

a)   qarashlar cheklanganligi;

b)   boshqa odamlarni tushuna olmaslik;

c)   boshqalar bilan ishlay olmaslik;

d)   qat'iyatsizlik;

e)   tashabbusning yo'qligi;

f)   mas'uliyatni o'z bo'yniga olmaslik.

Albatta har bir rahbar mukammal darajadagi shaxs emas. Barcha rahbarlarda yuqoridagi kabi yaxshi va yomon tomonlar bo'ladi. E'tiborlisi esa faoliyat davomida yaxshi tomonlarni rivojlantirish yomon tomonlardan voz kechishidir. Bular o'zo'zidan bo'lmaydi. Ma'lum vazifa yoki harakat natijasida yuzaga chiqqan jihat doim etiborda bo'lishi kerak. Bunda, rahbar faoliyat tahlili hamda o'zini-o'zi baholash salohiyatiga tayanadi. Shuningdek, chuqur egallangan nazariy bilimlarning amaliyotda ko'p qo'llanilishi katta tajriba manbayi bo'lib xizmat qiladi.

Yangi zamon talablariga mos siyosiy madaniyat, ma'naviyat, yangicha fikrlovchi, mushohada yurutuvch, vatanparvar, fidoiy, irodali fuqarolar yetishib chiqishining bosh omillaridir. Bu haqda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" kitobida quyidagi qimmatli fikrlarni o'rtaga tashlaydi: "*Insonning ma'naviyati yuksalishi bilan irodasi ham kuchayib boradi, desak, yangilishmagan bo'lamiz. Iroda - bu aslida mustahkam ishonch demakdir. Irodasi baquvvat odam o'ziga ishonadi va har qanday murakkab vazifani ham o'z zimmasiga olishdan qo'rqmaydi. Shuning uchun ham yuksak irodali insonga suyanish mumkin*".

Fikrlarimiz boshida keltirib o'tkanimizdek va Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek har bir inson uchun iroda asosiy ijobiy xususiyatdir. Aytib o'tilgandek irodali shaxsda burch, mas'uliyat, o'ziga bo'lgan ishonch, qattiyat ham shakllanadi va har qaysi faoliyat harakatini samarali, ijobiy bo'lishida xizmat qiladi. Qattiyat hamda o'ziga bo'lgan ishonchi, zamonaviy qilib aytganda shaxsiy motiv darajasi esa harakatchanlik koeffisientini jadallashtiradi.

Inson faoliyati aniq maqsadga erishishga yo'naltirilgan. "Motiv-maqsad" munosabati inson faoliyati o'zagidir. Umumiy ma'noda, motiv - odamni faoliyatga

undaydigan, maqsad-mazkur faoliyat natijasida erishishga intiladigan bosqichdir. Shunday qulib, motiv inson xulqining ichki harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Insonning ishga munosabati, shuningdek, uning hayotdagi muvaffaqiyatlarining umumiy darajasi motivatsiya darajasiga bog'liq. Rahbarning eng muhim xislati - odamlar faoliyati motivlarini tahlil qila bilish. Har bir kishining kelajagini oldindan ko'rish, mutaxasisni muayyan ishni bajarishga qiziqtirish, uning tabiiy moyilliklarini hisobga olishdir.

Rahbarlarning motivatsion tahlili boshqaruvga ta'sir qiluvchi eng asosiy omillardan biri. Chunki rahbar tomonidan xodimga yuklatilgan vazifaning tez va sifatli bajarilishidan tashkilot ham jamoa ham manfaatdor bo'ladi. Vazifaning tez va sifatli bajarilishi esa rahbarga bog'liq. Rahbar vazifaning qandayligini bilishi va uni qaysi xodimiga topshirishi yechimning negizidir. To'g'ri xodimlarning vazifaviy vakolati turlicha. Lekin rahbar qaysi xodimining tajribasi va ishga moyillik darajasini aniq bilishi - bu yarim natija hisoblanadi. To'g'ri tanlangan xodimga motivatrlik xislatidan foydalanib qiziqtirish va rag'batlantirsh berish esa rahbarning zimmasida hamda bu ijobiy natijaga asos bo'ladi. Rahbar ham vakolat va odob me'yorlariga tayangan holda xizmat va vazifalar majmuyini amalga oshiradi. Rahbarlik odobi ijtimoiy-ruhiy xususiyatlarning birlamchi omili bo'lib xizmat qiladi.

Rahbarlik odobi yuksak ma'naviy, madaniy, axloqiy me'yor, talab va tamoyillar bo'lgan erkinlikka asoslanadi. Rahbar nafaqat o'zi erkin bo'lishi, balki sherigining, o'zi ishlayotgan jamoa a'zolarining ham erkinligini hurmat qilishi lozim.

Darhaqiqat, odob me'yorlariga amal qilish har qanday munosabatda birinchi o'rinda turadi. Erkinlik esa ma'lum me'yoriy chegaralar asosidagi xususiyat. Sababi o'zaro hurmat, yosh ko'rsatkichi, tajriba va shu kabi ko'plab jihatlar muvozanat omilidir. Albatta erkinlik kerak. Rahbar vazifani topshiryotganda va qabul qilyotganda vakolati va ma'lum erkinligidan foydalanishi zarur. Xodim esa vazifani bajarish davomida istalgan uslub va ijodiy hamda amaliy erkinligidan foydalanishlari zarur.

Rahbarlik mahoratining muhim jihati muomala madaniyatidir. Yoqimli va muloyim suhbat olib borish tadbirkorlikda, rahbarlikda katta yutuqqa olib keladi.

Nafaqat boshqaruvda, rahbarlik balki har qanday holatda muomala madaniyati insoniylikning asosiy jihatidir. Rahbarlarning muomala madaniyati esa uning jamoadagi mavqeyini belgilaydigan va munosabatlarda hurmatini oshiradigan xususiyatdir. Rahbarlar jamoa va xodimlar bilan doimiy vakolat doirasida muomala qilishi biroz noto'g'ri. Chunki rahbar xodimlari bilan xodimining tajribasi, bilim darajasi va uning xislatlaridan xabardor bo'lishi kerak. Bular esa turli suhbatlar va muomala natijasida yuzaga chiqadi. Rahbar mumolasida samimiylik, vazminlik asosiy

xususiyat. Xodimlarning rahbarga bo'lgan hurmati va ishonchi samimiylik hamda vazminlik xislatlari orqali mustahkamlanadi. Rahabarlar muomala jarayonida yolg'ondan foydanmasliklari muomala munosabatlarini ijobiy va uzoq vaqt davom etishiga xizmat qiladi.

Rahbar turli muassasalar bilan o'zaro ma'lum munosabatlarga kirishishlari, hamkorning ko'ngliga yo'l topa olishi zarur. Bu haqda rahbarlik ilmining nazariyotchilaridan biri Deyl Karnegi shunday degan: "Siz sherigingiz bilan u qiziqqan masalalar yuzasidan gaplashing, shunda ishingiz baroridan keladi".

Karnegining bu fikrlari qiziqarli va juda o'rinli. Chunki rahbarlar muassasa va tashkilot nomidan turli shartnoma va kelishuvlarga erishishi muhim. Bunday holatda esa hamkor yoki sherikning dunyoqarashidan va uning manfaatlar qiziqishidan kelib chiqib munosabat o'rnatishi qaysidir jahatdan foydali bo'ladi. Xodimlar bilan munosabat qilishda ularning ijtimoiy iqtisodiy va oilaviy holatidan ma'lum darajada xabardor bo'lishi yanada kerakli omil bo'ladi. Umuman olganda hamkorlarning, xodimlarning qiziqishlari, yutuqlari, muammolari va oilaviy ishlarini bilishi hamda tashkilot ishlariga aralashtirmagan holda rivojlantirishga yordam berishi, hal qilishi ikki tomon uchun ham manfaatlidir. Chunki shaxsiy masalalarning ishga xalaqit berish darajasi yuqor bo'ladi. Ayniqsa, oilaviy masalalar.

Oilaviy muhitning rahbar kayfiyatiga ta'sirini, hatto uning xodimlariga bo'lgan munosabatda aks etishini inkor etish qiyin. Shu munosabat bilan oilaviy hayotning ichki qonunlari, oiladagi o'zaro munosabat shakllari haqida xabardor bo'lish rahbarning o'z-o'zini boshqarish imkoniyatini kengaytiradi.

Albatta bu to'g'ri. Uyidan oilaviy masalalar sababli kayfiyatsiz yoki stress holatda ishga kelgan rahbar tabiiy ravishda jamoa psixolik muhitini salbiy tomonga yo'naltirib yuborishi hech gap emas. Xodimlar esa muamolarini o'ylab o'z vazifasini sifatsiz bajarishi ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik muhtning buzilishiga yo'l qo'yadi. Ayrim rahabar va xodimlar esa uyiga vazifa va topshiriqlarini umumiy ma'noda ishlarini olib borishlari oilaviy muhitning buzilishiga ham olib kelishi mumkin. Sababi oilaga ajratilishi kerak bo'lgan vaqt yana ishga sarflansa inson asab tizimiga va psixologik holatiga ta'sir qilmay qolmaydi. Asosan rahbarlar oilaviy masalalar qurshovida qoladi. Chunki doimiy mas'uliyat uni tutib turadi. Rahbarlar lavozimi ko'tarilgani sayin bunday holatlar yana ortib boradi.

Xulosa qilib aytganda faoliyat davomida har qaysi rahbarlar muomala madaniyati va odob me'yorlari rioya qilishlari kerak. Nazariy va amaliy tajribaga tayanishlari hamda ortiqcha asabiylashishdan yiroq bo'lishlari, jamoaviy va oilaviy masalalarni o'z o'rnida hal qilishlari boshqaruv jarayoning rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. K.B.Axmedjanov. A.X.Xolov.Yosh rahbar kadrlarda samarali qaror qabul qilish koʻnikmasini shakllantirish.Oʻquv qoʻllanma // Toshkent. -"Tafakkur qanoti", 2020. 96 bet

2. Toʻychiyeva S. Boshqaruv texnologiyalari. Oʻquv qoʻllanma // Toshkent. "Navroʻz" nashriyoti, 2020. 148 bet

3. Rahmatullayeva N, Kamolov A. Ijtimoiy menejment. // Oʻquv qoʻllanma. - T.: "Iqtisod-Moliya", 2017. - 288 b

4. Oʻsha manbaa. 220-bet.

5. Haydarov A. Siyosiy madaniyat mas'uliyati. - Toshkent, -"Tafakkur" 2009,- 176 bet

6. E.Gʻ. Nabiyev, D.N. Rahimova, Sh.N. Mavloniy. Zamonaviy menejment nazariyasi va amaliyoti. // Oʻquv qoʻllanma. - T.: "Akademiya" nashriyoti, 2006. - 252 b

7. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. // - Toshkent: "Yangi asr avlod", 2016. - 132 b

ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

XALQ TA'LIMI TIZIMIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH ISHLARI: MUAMMO VA ULARNING YECHIMLARI

G.S.Alibekova
Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani MMTB tasarrufidagi
18-umumiy o'rta ta'lim maktabi Amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Maqolada umumta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish bo'yicha ishlarni tashkil etish, kasbga yo'naltirishning nazariy asoslari, asosiy tamoyillari va mavjud muammolarga yechimlar berilgan.

Kalit so'zlar: Kasb-hunar, integratsiya, texnologiya, tamoyil, malaka, ta'lim, mutaxassis

Asosiy qism

Kasb-hunarga yo'naltirish – umuminsoniy madaniyatni shakllantirish jarayonining tarkibiy qismlaridan biri sifatida yosh avlodning kasbiy tiklanishi, tabiat in'om etgan (tug'ma) qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashish, insonga kasbiy o'zligini anglashiga yordam beruvchi maxsus chora-tadbirlar majmuasi bo'lib, uning imkoniyat va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, bandlik va maqbul ta'lim turini tanlash ishlarida, turli xil malakali kasb mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojlarda jamiyatning g'amxo'rligi sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy texnika va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunda jamiyatimizning barcha sohalarida keskin o'zgarishlar kuzatilmoqda. Shunga hamnafas tarzda ta'lim tizimini ham bosqichma-bosqich isloh qilib borish zamon talabi doirasida jadallashib bormoqda. Keyingi yillarda mamalakatda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog'cha tarbiyalanuvchilari, o'quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2020 yildagi PF-6108 sonli farmoni o'z vaqtida chiqarilgan va o'ta muhim hujjatdir. Ushbu farmonda Xalq ta'limi vazirligiga topshiriq sifatida o'quvchilarni kelgusi hayotga tayyorlash va ularga o'z bilim va ko'nikmalaridan amaliyotda foydalanishni o'rgatuvchi malaka talablarini sinflar kesimida ishlab chiqish, umumta'lim muassasalari bitiruvchilari o'z iqtidori va qiziqishlariga mos kasbni tanlab olishi, mehnat bozorida munosib o'rinni topishi, kasbiy faoliyatida muvafaqqiyatga erishishi uchun "Kasbga yo'naltirish tizimini joriy

etish, 7-sinfdan boshlab o'quvchilar o'rtasida interaktiv so'rovnomalar o'tkazish, kasb-hunarga bo'lgan qiziqishini aniqlash va ularning ma'lumotlar bazasini yaratish, 7-sinf o'quvchilari uchun har oyda bir marta "kasblar olamiga sayohat" mavzusida kurslar olib borish, 8-sinf o'quvchilari uchun har chorakda kamida bir marotaba "Mening kelajakdagi kasbim" mavzusida seminar-treninglar olib borish hamda, o'quvchilarni kelajakda egallamoqchi bo'lgan kasblarga yo'naltirish, 9-sinf o'quvchilarining kasbiy moyilligi bo'yicha o'tkazilgan pedagogik-psixologik tashxislar natijalari asosida kelgusida aniq ishchi kasblar bo'yicha kasb-hunar maktablarida ta'lim olishi mumkin bo'lgan o'quvchilar o'rtasida kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish ko'zda tutilgan.

Kasb-hunarga yo'naltirishni tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuv-bu o'quvchi- yoshlar tomonidan o'zlashtirilagan nazariy va amaliy ko'nikma hamda malakaga aylantirish, ularga faol kasbiy yo'naltirishni tashkil etish tajribasni yuzaga keltirish hamda kasbiy qobiliyat va layoqatlari asosida kasbiy qarorlar qabul qilishni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonida amaliyotchi psixolog va kasb-hunarga yo'naltiruvchilar uchun kasb-hunarga yo'naltirishni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish majmuyi bo'lib xizmat qiladi.

Kasb-hunarga yo'naltirishda quyidagi tamoyillar asos qilib olingan:

- kasb-hunarga yo'naltirish xizmatlarining majmuaviy xarakterdaligi;

- iqtisodiy rivojlanish va mehnat bozorini o'rganish va prognoz qilish orqali jamiyat va shaxs qiziqishlarini muvofiqlashtirish;

- shaxsni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis qilish shakli, uslublari va vositalarining ilmiy asoslanganligi;

- O'zbekiston fuqarolarining va (lozim bo'lganda) boshqa davlat fuqarolarining o'qish, ish joyi, yoshi, jinsi, millati va diniy dunyoqarashidan qat'iy nazar kasb-hunarga yo'naltirish xizmatlaridan foydalanishga teng huquqligi;

- kasb tanlash yoki almashtirish, ta'lim turi va ishga joylashish imkoniyatlariga nisbatan kasbiy va boshqa axborotlarning tushunarliligi;

- umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilariga psixologik-pedagogik va kasb-hunarga yo'naltirish xizmatlarini ko'rsatishning majburiyligi va bepulligi, aholining boshqa guruhlariga davlat darajasida kafolatlangan kasbiy tashxis va maslahat berishning ixtiyoriyligi;

- kasbiy tanlov, tashxis va maslahat xulosalarining ob'yektivligi, maxfiyligi va tavsiyaviy xarakterda ekanligi;

- kasb-hunarga yo'naltirish xizmatlari xodimlarining kasbiy axloq normalariga rioya etishligi.

ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

PEDAGOGLARDAGI PSIXOLOGIK MUAMMOLARNI O'RGANISH

Qosimova Navbahor G'ayrat qizi
Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani
10-maktab psixologi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida o'qituvchining shaxsiga, kasbiy bilimdonligiga qo'yiladigan mezon va talablar, ta'lim samaradorligini ta'minlashda o'qituvchi va o'quvchi hamkorligining o'rni masalalariga to'xtalinadi. Pedagogik faoliyat subyekti bo'lgan o'qituvchi shaxsiga xos psixologik xususiyatlari yoriladi.

Kalit so'zlar: Pedagogika, psixologiya, kasbiy xislatlar, o'qituvchi qobiliyatlari; (perseptiv qobiliyatlar; akademik qobiliyatlar; avtoritar qobiliyatlar;), gnostik malakalar.

KIRISH

Psixologik nuqtayi nazardan o'qituvchi doimiy ravishda o'z bilimlarini oshirish bilan shug'ullanishi zarurdir. Chunki o'qituvchilik mehnatining asosiy xususiyati ham shudir. Pedagog har doim odamlar orasida bo'larkan, u birinchidan, odamlarni ko'pdan beri qiziqtirib kelayotgan haqiqatni o'z qarashlari bo'yicha to'g'ri tushuntirib berishi lozim. Albatta, o'qituvchidagi bu tariqa qarashlar ko'p yillar davomidagi mehnat va hayot faoliyati jarayonida shakllanadi; ikkinchidan, o'qituvchining o'zi axborotlar olish uchun o'quvchilarga nisbatan cheklangan vaqt imkoniyatiga ega; uchinchidan, u o'ta tor doiradagi tengqurlari bilangina muloqotda bo'lish imkoniyatiga ega boiib, ko'pincha o'z kasbiga xos qiziqishlar bilangina cheklanib qoladi. Ta'limning barcha ko'rsatkichlari, Z.I.Kalmikovaning ta'kidlashicha, anglash tezligi, yangi vazifalar hal qilinishiga erishish mumkin bo'lgan aniq ma'lumotlar hajmi, uni bevosita hal qilishdagi bosqichlar soni, natijaga erishishga yordam beruvchi ma'lumotlar miqdori, shuningdek, masalani hal qilish uchun sarflangan vaqt miqdori, o'z-o'zining bilimini oshirish qobiliyati, ishchanlik va chiniqqanlik darajasiga bog'liq. O'qituvchining mustaqil bilim egallashi deganda, uning o'z bilimlarini doimiy ravishda kasbiy va umummadaniy axborotlar bilan toldirib, o'zining individual ijtimoiy tajribasini keng miqyosda doimo yangilab borishi tushuniladi. Odatda aksariyat o'qituvchilar mustaqil bilim egallash zarurligini tushungan holda, undan muvaffaqiyatli foydalanadilar. Buning motivlari odatda pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchi oldida yuzaga keladigan muammolarni

anglab olish natijasida shakllanadi. Ko'p hollarda bunday motivlar "o'qituvchilarni qanday o'qitib va qanday tarbiyalash kerak?" degan xohish-istaklar tariqasida, fanning oxirgi yutuqlari, o'zining pedagogik mahoratini takomillashtirish ehtiyoji tug'ilishi munosabati bilan shakllana boradi. Shu bilan birga yaqqol ko'zga tashlanib turgan ayrim hollardan ko'z yuma olmaymiz. Masalan, o'qituvchilar ommasining ma'lum qismi mustaqil izlanishda bo'lib, o'z bilim saviyasini oshirish bilan faol shug'ullanmaydi, malakasini oshirishga intilmaydi, ba'zilar muayyan bilimlar sohasida taraqqiyotdan butunlay ortda qolmoqdalar. Bunday o'qituvchilar o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim va tarbiya taraqqiyotiga jiddiy zarar keltiradilar. O'qituvchining mustaqil bilim egallashi va malakasini oshirish pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirishda zaruriy shartlardandir. Shu bilan birga o'qituvchi doimiy ravishda o'z malakasini oshirib, o'z ishining muvaffaqiyatini yuqori darajada ta'minlashga yordam beradigan shaxsiy xislatlarini tarbiyalab borishi zarur. Bu borada hazrati Bahouddin Naqshband

"Chaqmoq tosh qo'limizga berilgan, faqat harakat qilish kerak, toki natija hosil bo'lsin" deb ta'kidlaganlar. Bu fikr bilan u ijtimoiy tarbiyaning o'rniga ishora qiladi, to'g'ri tarbiyaning mohiyatini, uning samarasini aniq o'xshatishlar bilan asoslab beradi. Hozirgi zamon ilm-fan taraqqiyotini buyuk allomalar yaratgan bir necha qimmatli asarlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu nodir asarlar bir necha asrlar ilgari yaratilgan bo'lsa-da, o'z qimmatini yo'qotgan emas.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta'lim to'g'risida qonun, Sh.Mirziyoev asarlari, mavzuga doir adabiyotlar hamda internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qo'llanildi.

MUHOKAMA

Pedagogik faoliyat boshqa faoliyat turlari kabi o'z motivatsiyasi, maqsadi, predmeti, vositalari, usullari, mahsuli va natijasini aks ettiruvchi psixologik mazmunni ifodalaydi. Pedagogik faoliyatning vositalari sifatida ilmiy (nazariy va empirik) bilimlarni ko'rish mumkin. Yordamchi vositalarga esa texnik, kompyuter, grafik vositalarni kiritish mumkin.Psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, xalq ta'limi bo'limlari va maktab direktorlari o'qituvchining ayrim xislatlari naqadar muhimligini har xil baholaydilar. Jumladan, xalq ta'limi bo'limlarining mudirlari o'qituvchidan birinchi navbatda o'z fanini

yaxshi bilishini va dars berish metodikasini mukammal oʻzlashtirishini talab qilsalar, maktab direktorlari oʻqituvchiga qoʻyiladigan bunday talablarni uchinchi oʻringa qoʻyadilar. Shu bilan birga xalq ta'limi bo'limlarining mudirlari oʻqituvchilarning oʻquvchilar va ota-onalar, maktab jamoasi bilan qanday muloqotda boʻlishni bilishini naqadar ahamiyatga ega ekanligiga unchalik e'tibor bermaydilar. Maktab direktorlari esa, bunday xislatlarni oʻqituvchi shaxsiga qoʻyiladigan talablar ichida birinchi oʻringa qoʻyadilar. Boʻlajak pedagog shaxsiga bir qator jiddiy talablar qoʻyiladi. Ularni asosiy, ya'ni uni egallamasdan turib, yuqori malakali oʻqituvchi yoki tarbiyachi boʻlib yetishish mumkin boʻlmagan va ikkinchi darajali, ya'ni bevosita pedagogik faoliyati uchun emas, balki uning shaxs sifatida shakllanishi va shaxsga ta'lim-tarbiya berishida muhim boʻlgan talablarga ajratish mumkin. Bosh, asosiy talablar singari, ikkinchi darajali talablar ham pedagogning faoliyati psixologiyasiga ya'ni, uning muloqoti, qobiliyati, bilimi, malaka va koʻnikmasi, mahorati, bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish uchun zarur boʻlgan sifatlarga bogʻliqdir. Asosiylari orasida ham, qoʻshimcha psixologik xossalar ichida ham o'zgarmas, ya'ni har bir davrda, vaqt va xalqlarda doimo oʻqituvchi va tarbiyachilar uchun, malakali pedagoglar uchun zarur boʻlgan hamda oʻzgaruvchan, ya'ni muayyan davr ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti talablaridan kelib chiqadigan, jamiyat qaror topgan sharoitda yashaydigan va pedagog ishlaydigan muhit talablaridir.

Pedagogga qoʻyiladigan asosiy, bosh va oʻzgarmas talablar bolalarga boʻlgan mehr, pedagogik faoliyat, oʻzi ishlaydigan soha boʻyicha maxsus bilim, keng fikrlay olish, pedagogik intuitsiya, yuqori saviyada rivojlangan tafakkurga, chuqur bilimga, madaniyat va yaxshi xulqqa ega boʻlish, bolalarni oʻqitish va tarbiyalashning turli uslublaridan mohirona foydalana olishni bilishdan iborat. Yuqorida keltirilgan xislatlarning birortasisiz muvaffaqiyat bilan pedagogik ish olib borish mumkin emas.

Pedagog uchun qoʻshimcha, lekin nisbatan turgʻun talablar qatoriga kirishuvchanlik, artistlik, shodon xulq, yaxshi did-farosat va boshqalarni kiritish mumkin. Bu xususiyatlar eng asosiy oʻrinda turmasa-da, ammo oʻqituvchi faoliyati uchun katta yordam beradi. Bu hamma xossalar tugʻma qobiliyat emas. Ular pedagogning muntazam mehnati, shuningdek, oʻz ustida tinmay ishlashi natijasida egallanadi. Bosh va ikkilamchi pedagogik xossalar jamlanib, pedagogning shaxsiyatini aniqlaydi, shu jihatlar kuchi bilan har bir oʻqituvchi qaytarilmas va oʻziga xos shaxs sifatida namoyon boʻladi. Jamiyat tomonidan qoʻyiladigan talablardan eng muhimi oʻqituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bogʻliq xislatlariga qaratilgan. Jamiyatning oʻqituvchilik kasbiga qoʻyadigan asosiy talablari quyidagichadir:

— shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomondan tarbiyalashning, milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarning mohiyatini, bolalarni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashni bilishi, o'z Vatani, tabiatga va oilasiga bo'lgan muhabbati;

— keng bilim saviyasiga ega boiishi, turli bilimlardan xabardor boiishi;

— yosh, pedagogik-psixologiya, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda maktab gigiyenasidan chuqur bilimlarga ega bolishi;

— o'zi dars beradigan fan bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lib, o'z kasbi, sohasida jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi;

— ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi;

— o'z ishiga ijodiy yondashishi;

— bola psixik taraqqiyotini, uning ichki dunyosini tushuna olishi;

